

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**2019 — 2029-YILLARDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKADA ATOM ENERGETIKASINI
RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5484-son **Farmoni** ijrosini ta‘minlash, shuningdek, respublikada atom energetikasini mamlakatning yangi yuqori texnologiyali energetika tarmog‘i sifatida rivojlantirishning uzoq muddatli va mustahkam tizimini yaratish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi (keyingi o‘rinlarda — “O‘zatom” agentligi) tomonidan mutasaddi vazirliklar va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi hududida atom elektr stansiyasi qurishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4048-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Rossiya Federatsiyasi Hukumati o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi hududida atom elektr stansiyasini qurishda hamkorlik qilish to‘g‘risidagi Bitimni 2018 — 2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tadbirlari amalga oshirilayotganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

a) quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi 2019 — 2029-yillarda O‘zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin:

milliy yadro infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan normativ-huquqiy bazani shakllantirish, O‘zbekiston Respublikasining yadro xavfsizligining global rejimida ishtirok etishi, atom elektr stansiyasini (keyingi o‘rinlarda — AES) ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot faoliyatini ta‘minlash, atom energetikasini tartibga solishning asosini yaratish, yadro-energetika dasturining shaffofligi va jamoatchilik uchun ochiqiligini ta‘minlash, malakali kadrlar bilan ta‘minlash;

birinchi AESni qurish, shu jumladan maydonchani tanlash va AESni joylashtirishni litsenziyalash, loyihalashtirish, qurish va foydalanishga topshirish;

atom energiyasidan foydalanishda atrof-muhit muhofazasini va odamlarni radiatsiyadan himoya qilishni ta‘minlash;

xavfsiz va iqtisodiy samarador yadro yoqilg‘i siklini tashkil etish, shu jumladan atom energetikasini yadro yoqilg‘isi bilan uzoq muddatli ta‘minlash, ishlatib bo‘lingan yoqilg‘i bilan bog‘liq ishlarni xavfsiz amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, uni qayta ishlash va chiqindilarni utilitatsiya qilishni tashkil etish;

atom energetikasini uzoq muddatli rivojlantirishni ta‘minlash, shu jumladan, atom ilm-fani va texnologiyalarini rivojlantirish, AES qurilishi va uning ekspluatatsiya qilishni qo‘llab-quvvatlash uchun mamlakatimiz tashkilotlari tomonidan loyiha, konstruktorlik, ekologik va boshqa bilim va tajribani egallashni, kelajakdagi AESlar referent texnologiyalarini tanlash uchun yadro texnologiyalari tendensiyalarini o‘rganish;

b) quyidagi tadbirlarni bajarishni o‘z ichiga olgan 2019 — 2029-yillarda O‘zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” (keyingi o‘rinlarda — “Yo‘l xaritasi”) **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin:

yadro xavfsizligi sohasidagi xalqaro konvensiyalarga qo‘shilish yoki ularning qoidalarini O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga implementatsiya qilish, shuningdek atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish sohasida normalar va qoidalarni ishlab chiqish va qabul qilish;

maydonchani tanlash va AESni joylashtirishni litsenziyalash, AES va uning tashqi infratuzilma obyektlarini loyihalashtirish, qurish va foydalanishga topshirish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va radiatsiya himoyasi, shu jumladan ishlatib bo‘lingan yadro yoqilg‘isini olib chiqish va saqlash, shuningdek yangi va ishlatib bo‘lingan yadro yoqilg‘isi bilan ishlash;

atom ilm-fani va texnologiyalarini, shu jumladan iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlari, uchun noenergetik yadro texnologiyalarini, yadro tibbiyoti va radiokimyoni rivojlantirish;

Konsepsiyada nazarda tutilgan tadbirlarning amalga oshirilishini monitoring va nazorat qilish.

3. Quyidagilarga:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining tegishli o‘rinbosarlari zimmasiga — “Yo‘l xaritasi”da nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha vazirlik va idoralar faoliyatini samarali tashkil etish hamda muvofiqlashtirish, shuningdek uning bajarilishini har chorakda tanqidiy muhokama qilishni tashkil etish;

vazirlik va idoralar rahbarlari zimmasiga — mustaqil ekspertlarni (maslahatchilarni), shu jumladan xorijiy ekspertlarni keng jalb etgan holda “Yo‘l xaritasi”da nazarda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida bajarish;

ilmiy-tadqiqot va ta‘lim muassasalari rahbarlari zimmasiga — “Yo‘l xaritasi”da nazarda tutilgan tadbirlar doirasida fundamental va amaliy fanni rivojlantirishni, shuningdek atom energetikasi uchun malakali kadrlar tayyorlashni ta‘minlash yuzasidan shaxsiy javobgarlik belgilansin.

4. Energetika vazirligi, Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi, Fanlar akademiyasi, Adliya vazirligi boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda, aniq muddatlar va mas‘ul ijrochilarni ko‘rsatgan holda, 2019 — 2021-yillarda qabul qilinishi kerak bo‘lgan va Konsepsiyani amalga oshirishga yo‘naltirilgan birinchi navbatdagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash rejasini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

5. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ommaviy axborot vositalarida tasdiqlangan Konsepsiyaning maqsad va vazifalarini yoritish bo‘yicha maqolalar hamda mavzuga oid ko‘rsatuvlarni muntazam tashkil etsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov va O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri A.S. Sultanov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2019-yil 7-fevral,
PQ-4165-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-fevraldagi PQ-4165-son qaroriga
1-ILOVA

2019 — 2029-yillarda O‘zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish

KONSEPSIYASI

Jahon hamjamiyati global energetika ehtiyojlarini qanoatlantirish muammosini hal etishni qayta tiklanadigan energiya manbalarini (quyosh, shamol va suv) rivojlantirish barobarida ayni paytda energetika ishlab chiqarish umumiy hajmining 11 foizidan oshgan atom energetikasini rivojlantirish bilan bog‘lamoqda. Dunyoning 5 davlati: Fransiya, Slovakiya, Ukraina, Vengriya va Belgiyada atom energiyasi elektr energiyaga bo‘lgan ehtiyojning 40 foizdan ortig‘ini ta‘minlamoqda.

Atom energiyasi ekologik toza energiya hisoblanadi. Atom elektr stansiyalarida (keyingi o‘rinlarda — AES) elektr va issiqlik energiyasi olishda ko‘mir, mazut, gazda ishlovchi an’anaviy ko‘rinishdagi issiqlik elektr stansiyalaridan farqli o‘laroq azot oksidi, oltingugurt, uglerod, kul kabi atrof-muhitni ifloslantiruvchi moddalar hosil bo‘lmaydi.

Atom energetikasini rivojlantirishning foydasiga xizmat qiluvchi asosiy iqtisodiy omillardan biri AESning, uzaytirish imkoni bilan, 60 yildan kam bo‘lmagan muddatni tashkil qiluvchi butun ishlash davrida ishlab chiqariladigan elektr energiyasi narxining barqarorligini kafolatlash imkoniyati hisoblanadi.

Dunyoning 31 davlatida atom energiyasidan foydalanilmoqda va ularda umumiy quvvati qariyb 400 GVt bo'lgan 450 dan ortiq energiya bloklari faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirgi vaqtda 60 ta yangi energiya bloklari bunyod etilmoqda va ulardan 39 tasi Osiyo mintaqasiga to'g'ri keladi.

Respublika iqtisodiyotining elektr energiyasiga ortib borayotgan ehtiyojini qanoatlantirish maqsadida (2030-yilga borib 117 milliard kVt/soat) 2018-yil 7-sentabr kuni Moskva shahrida O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Rossiya Federatsiyasi Hukumati o'rtasida O'zbekiston hududida atom elektr stansiyasini qurishda hamkorlik to'g'risida bitim tuzildi.

Mazkur Bitimda O'zbekiston Respublikasi hududida har birining belgilangan quvvati 1,2 GVt bo'lgan ikkita energiya blokidan iborat, zamonaviy va xavfsiz III+ avlod referent AES qurish, shuningdek milliy yadro infratuzilmasi, xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga solish, atom energetikasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini yaratish, yadro yoqilg'isini yetkazib berish, ishlatib bo'lingan yadro yoqilg'isidan foydalanish masalasi yuzasidan hamkorlik qilish nazarda tutilgan.

1-bob. Asosiy qoidalar

1. Ushbu 2019 — 2029-yillarda O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish Konsepsiyasi atom energetikasi sohasida milliy siyosatning asosiy prinsiplari, atom energetikasini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari hamda ularni amalga oshirish bo'yicha tadbirlar, atom energetikasini rivojlantirishning asosiy xavf-xatarlarini, moliyalashtirishning prognoz manbalari, asosiy tadbirlarni amalga oshirish monitoringi va nazorat qilish mexanizmini belgilaydi.

2. 2019 — 2029-yillarda O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish Konsepsiyasining tuzilmaviy sxemasi ushbu Konsepsiyaga [ilovada](#) keltirilgan.

2-bob. Atom energetikasi sohasidagi milliy siyosatning asosiy prinsiplari

3. Quyidagilar atom energetikasi sohasidagi milliy siyosatning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish;

odamlar va atrof-muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning potentsial zararli ta'siridan himoya qilish;

Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlikning (keyingi o'rinlarda — MAGATE) xavfsizlik talablariga rioya etish;

yadro qurolini tarqatmaslik rejimini ta'minlash.

3-bob. Atom energetikasini rivojlantirishning asosiy maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari

4. Quyidagilar 2019 — 2029-yillarda O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirishning asosiy maqsadlari hisoblanadi:

infratuzilmasi rivojlangan milliy yadro energetikasini tashkil qilish, umumiy quvvati 2,4 GVt bo'lgan AESni qurish va undan xavfsiz foydalanishni boshlash orqali 2030-yilda mamlakatni ishonchli, xavfsiz, iqtisodiy jihatdan samarali va ekologik toza elektr energiyasi manbai bilan ta'minlash;

atom ilm-fani, texnologiyalari, noenergetik yadro texnologiyalar, malakali milliy kadrlarni tayyorlash orqali atom energiyasidan xavfsiz foydalanish infratuzilmasini ta'minlash.

5. Asosiy maqsadlarga erishish uchun quyidagi asosiy ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishni ta'minlash zarur:

milliy yadro infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan normativ-huquqiy bazani shakllantirish, O'zbekiston Respublikasining global yadro xavfsizligi tartibotida ishtirok etishi, AESni ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot faoliyatini ta'minlash, atom energetikasini tartibga soluvchi asoslarni yaratish, yadro energetika dasturining jamoatchilik uchun shaffof va ochiqligini ta'minlash, malakali kadrlar bilan ta'minlash;

birinchi AESni qurish, shu jumladan maydonni tanlash va AESni litsenziyalash, AESni loyihalashtirish, qurish va foydalanishga topshirish;

atom energiyasidan foydalanishda atrof-muhit muhofazasini va aholini radiatsiyaviy himoya qilishni ta'minlash;

xavfsiz va iqtisodiy samarali yadro yoqilg'isi siklini tashkil etish, shu jumladan atom energetikasini yadro yoqilg'isi bilan uzoq muddatga ta'minlash, ishlatib bo'lingan yoqilg'idan xavfsiz foydalanish uchun sharoitlar yaratish, uni qayta ishlash va chiqindilarni utilizatsiya qilishni tashkil etish.

atom energetikasini uzoq muddatli rivojlantirishni ta'minlash, shu jumladan AESni qurish va undan foydalanishni qo'llab-quvvatlash uchun atom ilm-fani va texnologiyalarini rivojlantirish, mahalliy tashkilotlar tomonidan loyihaviy, konstruktorlik, ekologik va boshqa bilimlar hamda tajribani o'rganish, bo'lajak AESlarning referent texnologiyalarini tanlash uchun yadro texnologiyalarining rivojlanish yo'nalishlarini o'rganish.

4-bob. Atom energetikasini rivojlantirish xavflarini baholash

6. Atom energetikasini rivojlantirish sohasidagi maqsadlarga erishish quyidagi asosiy xavflarni bartaraf etish yoki kamaytirishga bog'liq:

a) makroiqtisodiy xavflar:

jahonda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining yadro-energetika dasturini moliyalashtirishda ishtirok etayotgan mamlakatlarda iqtisodiy vaziyatning yomonlashuvi;

O'zbekiston Respublikasi eksport qiladigan asosiy tovarlarga jahondagi narxlarining keskin va uzoq muddatli pasayishi ehtimoli bilan bog'liq holda milliy iqtisodiy vaziyatning yomonlashuvi;

atom energetikasini rivojlantirish loyihalarini, shu jumladan, milliy yadro infratuzilmasini rivojlantirishni O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirishning zarur hajmlari yetarlicha baholanmaganligi.

b) ijtimoiy xavflar:

atom energetikasining ijtimoiy maqbulligi borasida aholi bilan ishlash yetarlicha tashkil qilinmaganligi sababli ijtimoiy taranglik yuzaga kelishi oqibatida yadro-energetika dasturini tugatish yoki to'xtatib turish;

AES uchun tanlangan maydonni almashtirish zarurati yuzaga kelgan holatda ko'zda tutilmagan xarajatlar;

v) operatsiya xavflari:

qidiruv ishlari davomida yangi, avval kutilmagan man etuvchi yoki xavfli, shu jumladan, ekologik va suvni muhofaza qilish bilan bog'liq omillarning aniqlanishi sababli tanlangan maydonni o'zgartirish zarurati tufayli ko'zda tutilmagan xarajatlar;

qonunchilikning bartaraf etib bo'lmaydigan cheklovlari;

AESning referent obyekt sifatidagi optimal qiymatini ta'minlaydigan qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlashning kechiktirilishi sababli AESni qurish qiymatining oshishi;

AESni ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot va tartibga soluvchi organ yetarli darajada rivojlanmaganligi va kadrlar salohiyatining pastligi sababli litsenziyalash, loyihalashtirish va qurilish ishlarining kechikishi;

AESni ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotning talab etilgan malakaga ega ekspluatatsiya xodimlari bilan yetarlicha ta'minlanmasligi sababli AESni ishga tushirishning kechikishi;

AES uchun uskunalar yetkazib berish borasidagi jiddiy qiyinchiliklar;

g) siyosiy xavflar:

puqratchilar, yetkazib beruvchilar, moliya institutlariga nisbatan xalqaro sanksiyalar qo'llanilishi.

7. Yadro-energetika dasturini rivojlantirish xavflarini aniqlash va baholash, shuningdek xavflarni bartaraf etish va ular ta'sirining oldini olish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish loyiha ishtirokchilarining muvaffaqiyatli ishlashi uchun muhim omildir.

5-bob. Moliyalashtirishning prognoz manbalari

8. Quvvati 2,4 GVt bo'lgan birinchi AES qurilishini O'zbekiston Respublikasining o'z mablag'lari va Rossiya Federatsiyasining davlat krediti hisobidan moliyalashtirish.

9. AES tashqi infratuzilmasi obyektlarini qurishni O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligining Atom energetikasini rivojlantirish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Atom

energetikasini rivojlantirish jamg'armasi) mablag'lari, investorlar mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlamagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish.

10. Milliy yadro infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha loyihalarni Atom energetikasini rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, qisman Rossiya Federatsiyasining davlat krediti mablag'laridan va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan moliyalashtirish.

11. Inson resurslarini rivojlantirish loyihalarini, shu jumladan, kadrlar tayyorlash, malakali xodimlarni tanlash va saqlab qolish strategiyasini amalga oshirishni Atom energetikasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, xorijiy tashkilotlar grantlari va Rossiya Federatsiyasi tomonidan bepul yoki yadro infratuzilmasini rivojlantirish loyihalari doirasida taqdim etiladigan o'qitish xizmatlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish.

12. Ilmiy va texnologik salohiyatni rivojlantirish loyihalarini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, Atom energetikasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, xorijiy tashkilotlar grantlari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish.

6-bob. Atom energetikasini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar

1-§. Milliy yadro infratuzilmasini rivojlantirish

13. Milliy yadro-energetika dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasida yadro infratuzilmasini quyidagi asosiy yo'nalishlarda rivojlantirish nazarda tutiladi:

a) atom energetikasini rivojlantirishning normativ-huquqiy asoslarini shakllantirish:

O'zbekiston Respublikasining "Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida"gi Qonunini qabul qilish;

O'zbekiston Respublikasining yadro xavfsizligi sohasidagi xalqaro konvensiyalarga qo'shilishi yoki ularning qoidalarini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga implementatsiya qilish;

referent AESdan chetga chiqishlar bilan bog'liq chiqimlarni kamaytirish maqsadida yadro texnologiyalarini yetkazib beruvchi mamlakatlarning qonunchiligi ayrim qoidalarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilish imkoniyatlarini o'rganish;

xalqaro shartnomalarga muvofiq atom energiyasidan foydalanish sohasida normalar va qoidalar qabul qilish;

AESni loyihalashtirish, qurish va undan foydalanish uchun zarur bo'lgan standartlar, idoraviy normalar, reglamentlar, yo'riqnomalar, nizomlar va boshqa hujjatlarni qabul qilish (implementatsiya qilish, moslashtirish, ishlab chiqish);

b) O'zbekiston Respublikasining yadro xavfsizligi global rejimida ishtirokini ta'minlash:

AESdan foydalanishda O'zbekiston Respublikasining yadro-energetika dasturi manfaatlariga daxl qilishi mumkin bo'lgan qo'shni davlatlar bilan muloqotni tashkil etish;

manfaatdor mamlakatlar, nufuzli xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshirish yo'li bilan xavfsizlik manfaatlarida maslahatlashuvlarni ta'minlash;

xavfsizlik masalalarida maslahatlar olish, ekspluatatsiya qilishning xalqaro tajribasidan foydalanish maqsadida, shuningdek olingan saboqlarni hisobga olish uchun MAGATE bilan hamkorlikni amalga oshirish;

MAGATE normalariga rioya qilinishini ta'minlash va MAGATE xavfsizligi normalari negizida xavfsizlik masalalari, xavfsizlik masalasi bo'yicha olinadigan xizmatlar sifatini xalqaro ko'rib chiqilishida ishtirok etish;

AESni ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotning Butunjahon atom elektrostansiyalari operatorlari assotsiatsiyasiga (WANO) kirishi yuzasidan choralar ko'rish;

AES qurilishi va uni ekspluatatsiya qilish tajribasini O'zbekiston Respublikasida qo'llash uchun to'liq darajada o'rganish zarur bo'lgan xalqaro tarmoq hamjamiyatlarida ishtirok etish;

v) AESni ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot faoliyatini ta'minlash:

AESni ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotni tashkil etish va rivojlantirish;

AESni ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotning yadro xavfsizligi, maydonlarni va barcha pudratchilarni tanlash, loyiha yechimlari, qurilish sifati, keyinchalik foydalanish, javobgarlikni moliyaviy ta'minlash hamda AESni qurish va ekspluatatsiya qilishning boshqa muhim jihatlari, shu jumladan, zarar uchun javobgarligini belgilash;

maydonga talablar belgilanganidan boshlab, AESni ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotning AES qurilishi jarayonidagi ishtiroki;

g) Atom energetikasini tartibga solish asoslarini yaratish;

xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga solish milliy organini uzoq muddatli rivojlantirish va unga atom energetikasi xavfsizligini tartibga solish sohasida maxsus vakolatlar berish;

atom energiyasidan foydalanishni tartibga solish bo'yicha yadro texnologiyalarini yetkazib beruvchi davlatning tartibga soluvchi talablari, MAGATE normalari, xalqaro va xorijiy tartibga soluvchi tashkilotlar tajribasiga asoslangan normativ-huquqiy bazani rivojlantirish;

atom energetikasi xavfsizligini tartibga solish sohasida qonunchilik talablari va MAGATE normalariga rioya etish;

xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga soluvchi organlarning o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarishi uchun yetarli moliyaviy resurslardan uzoq muddat foydalanishini ta'minlash;

atom energiyasidan foydalanish va xavfsizlik ekspertizasi sohasidagi faoliyatni litsenziyalash jarayonini takomillashtirish;

radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasida davlat nazorati tizimini takomillashtirish;

xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga soluvchi organlar uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yaratish hamda rivojlantirish;

xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga soluvchi milliy organlarning atom energetikasi xavfsizligini tartibga solishga mas'ul bo'lgan xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan keng hamkorligini ta'minlash;

shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga soluvchi organlarni ekspert qo'llab-quvvatlash bo'yicha milliy sektorni rivojlantirish;

d) yadro-energetika dasturining jamoatchilik uchun ochiqligi va oshkorligini ta'minlash:

Rossiya Federatsiyasining ko'magida Toshkent shahrida va AES quriladigan maydon joylashadigan hududda atom sohasida axborot markazlarini ochish;

ommaviy axborot vositalari vakillarining vakolatlarini oshirish;

O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini ommaviylashtirish sohasida tizimli ishlarni tashkil etish va mamlakat aholisini zamonaviy yadro-energetika texnologiyalari, shuningdek ularning xavfsizligi va ekologik sofliги to'g'risida xabardor qilish;

atom energetikasini rivojlantirish borasidagi qarorlar loyihalarini ko'rib chiqish bo'yicha jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish;

yadro-energetika texnologiyalari sohasida xalqaro konferensiyalar va ko'rgazmalar tashkil qilish hamda o'tkazish, shuningdek, xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlari o'tkazish;

atom energetikasi va yadro texnologiyalari sohasida xorijiy sheriklar tomonidan o'tkaziladigan xalqaro konferensiyalar, ko'rgazmalar, seminarlarda ishtirok etish, ushbu maydonlardan aholiga texnologiyalar xavfsizligi to'g'risida ma'lumot yetkazish uchun axborot manbai sifatida foydalanish;

O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi qoshidagi AESni ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot (keyingi o'rinlarda — "O'zatom") va xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga soluvchi organda ularning o'z ommaviy axborot vositalarini tashkil qilish;

atom sohasidagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan hamda atom energetikasi sohasida oshkorlikka ko'maklashadigan xalqaro madaniy va ma'rifiy loyihalarda ishtirok etish;

e) malakali kadrlar bilan ta'minlash:

yadro va radiatsiyaviy xavfsizlik bilan bog'liq sohalarda talab etiladigan bilimlar va tajriba hamda zarur xodimlar sonini umumiy aniqlash;

yadro-energetika dasturida ishtirok etadigan barcha tashkilotlar ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun yetarli bo'lgan mutaxassislarni jalb qilish, o'qitish va saqlash strategiyasini ishlab chiqish hamda tasdiqlash;

AESni ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot xodimlarini kontrakt turidan qat'i nazar, xavfsizlikni ta'minlash majburiyatlariga muvofiq konstruksiyalar, tizimlar va elementlar sifatini tekshirish qobiliyatiga, o'z darajasida litsenziyalash jarayonini boshqarishga tayyorlashni tashkil etish;

AESni ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotda AESni radiatsiya xavfsizligi bo'yicha foydalanishga tayyorlash bilan bog'liq ehtiyojlar, shu jumladan o'qitish va bilimlarni tekshirish uchun ekspert resurslar mavjud bo'lishini ta'minlash;

AES va yadro infratuzilmasi uchun xodimlarni tayyorlash, shu jumladan mutaxassislarning xorijiy davlatlarda stajirovkadan o'tish dasturlarini ishlab chiqish;

o'zbek talabalarini xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'qitish, shuningdek o'zbekistonlik mutaxassislarni atom energetikasi va turdosh sohalarda tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish uchun xorijiy davlatlarga yuborish;

"MMFI" milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent shahridagi filialida, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Samarqand davlat universiteti va boshqa ta'lim muassasalarida atom energetikasi sohasida kadrlar tayyorlash uchun tegishli o'quv yo'nalishlarini ochish;

respublika atom sohasini davlat tomonidan tartibga soluvchi organ xodimlarini tayyorlash.

2-§. Birinchi AESni qurishning asosiy bosqichlari

14. Quyidagilar birinchi AESni qurishning asosiy bosqichlari hisoblanadi:

AESni joylashtirish uchun maydon tanlash va litsenziyalash (2019-2020-yillar).

AES va uning tashqi infratuzilma obyektlarini loyihalashtirish (2020 — 2022-yillar).

AESni qurish hamda ishga tushirish (2022 — 2030-yillar).

3-§. Atrof-muhit muhofazasi va radiatsiya himoyasini ta'minlash

15. Milliy yadro-energetika dasturining rivojlantirilishi munosabati bilan atrof-muhit muhofazasi va radiatsiya himoyasi sohasidagi tadbirlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4-§. Xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan yadro yoqilg'isi siklini tashkil qilish

16. Xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan yadro yoqilg'isi siklini tashkil qilish quyidagi bosqichlardan iborat:

uran rudasini qazib olish va qayta ishlash;

yadro yoqilg'isi ishlab chiqarish uchun mamlakatning uran qazib olish salohiyatidan foydalanish;

yangi yadro yoqilg'isini xarid qilish;

ishlatib bo'lingan yadro yoqilg'isi bilan ishlash;

ishlatib bo'lingan yadro yoqilg'isini qayta ishlash uchun olib chiqish yoki qimmatbaho energetik material sifatida uzoq vaqt saqlashni tashkil etish;

ishlatib bo'lingan yadro yoqilg'isi chiqindilarini uzoq vaqt saqlash;

yadro yoqilg'isi sikli chiqindilarini butunlay ko'mish.

5-§. Atom energetikasini uzoq muddatli rivojlantirishni ta'minlash

17. Atom energetikasini uzoq muddatli rivojlantirishni ta'minlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

atom ilm-fani va yadro texnologiyalarini rivojlantirish;

AESdan foydalanish milliy sektorini rivojlantirish, shu jumladan, xorijiy va milliy investitsiyalarni jalb qilish, ilmiy-texnik hamkorlik va ekspert xizmatlari ko'rsatish sohasida qo'shma korxonalar tashkil etish;

kelajakdagi AESlar referent texnologiyasini tanlash uchun yadro texnologiyalarining dunyo miqyosidagi rivojlanish jarayonlarini o'rganish;

iqтisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha uchun noenergetik yadro texnologiyalarini rivojlantirish.

7-bob. Chora-tadbirlar amalga oshirilishini monitoring va nazorat qilish

18. Konsepsiyada nazarda tutilgan tadbirlar amalga oshirilishini monitoring va nazorat qilish uch darajali nazorat tizimini ishlab chiqish hamda joriy etish orqali ta'minlanadi.

1-daraja — "O'zatom" agentligining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga har haftada tezkor hisobot berishi;

2-daraja — O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga har oyda hisobot berishi;

3-daraja — O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yadro-energetika dasturini rivojlantirishning strategik va dolzarb yo'nalishlari bo'yicha har chorakda hisobot berishi.

2019 — 2029-yillarda O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish konsepsiyasiga ILOVA

2019 — 2029-yillarda o'zbekiston atom energetikasini rivojlantirish konsepsiyasining TUZILMAVIY SXEMASI

АТОМ ЭНЕРГЕТИКАСИ СОҲАСИДА МИЛЛИЙ СИЁСАТНИНГ АСОСИЙ ПРИНЦИПЛАРИ

1. Атом энергиясидан тинчлик мақсадларида фойдаланиш.
2. Ионлаштирувчи нурланишнинг потенциал зарарли таъсиридан одамларни ҳимоя қилиш ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш.
3. Халқаро атом энергияси агентлигининг хавфсизлик талабларига риоя қилиш.
4. Ядро қуролли тарқатмаслик режимини таъминлаш.

АТОМ ЭНЕРГЕТИКАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ МАҚСАДЛАРИ

1. Ривожланган инфратузилмага эга бўлган миллий ядро энергетикасини яратиш йўли орқали 2030 йилда мамлакатни ишончли, хавфсиз, иқтисодий самарали ва экологик тоза электр энергияси манбаи билан таъминлаш ҳамда умумий қуввати 2,4 ГВт бўлган АЭСни барпо этиш ва ундан хавфсиз фойдаланишни бошлаш.
2. Малакали миллий кадрлар тайёрлаган ҳолда Ўзбекистон Республикасида атом фани, технологиялари, ядро нозергетик технологиялар барқарор ривожланишини, кадрлар салоҳиятини ва атом энергиясидан фойдаланиш хавфсизлигининг тегишли миллий инфратузилмасини таъминлаш.

АТОМ ЭНЕРГЕТИКАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ

1. Миллий ядро инфратузилмасини ривожлантириш.
2. Биринчи АЭСни барпо этиш.
3. Атом энергиясидан фойдаланишда атроф-муҳит муҳофазасини ва одамларни радиациявий ҳимоя қилишни таъминлаш.
4. Хавфсиз ва иқтисодий самарали ядро ёқилғиси циклини ташкил этиш.
5. Атом энергетикасини узоқ муддатли ривожлантиришни таъминлаш.

АТОМ ЭНЕРГЕТИКАСИ ХАВФ-ХАТАРИНИ БАҲОЛАШ

<p><u>Макроиктисодий:</u> жаҳон иқтисодий вазияти-нинг ёмонлашиши; миллий иқтисодий вазият-нинг ёмонлашиши; атом энергетикасини ривож-лантириш лойиҳаларини молиялаштиришнинг зарур ҳажминини етарлича баҳоламаслик.</p>	<p><u>Ижтимоий:</u> ядро-энергетика дастурининг тўхтатилиши ёки тўхтатиб қўйилиши оқибатида юзага келиши мумкин бўлган ижтимоий кескинлик; ижтимоий кескинлик оқибатида АЭС учун танланган майдонлар алмаштирилган тақдирда олдидан ҳисобга олинмаган харажатлар.</p>	<p><u>Операцион:</u> изланишлар давомида таққиловчи ёки хавфли омиллар аниқланиши оқибатида олдидан назарда тутилмаган харажатлар; қонунчиликнинг енгиб бўлмайдиган чекловлари; норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш кечиктирилиши муносабати билан АЭС қурилиши қийматининг қўтайиши; талаб этиладиган малакага эга бўлган ходимлар билан етарлича таъминланмаслик муносабати билан АЭСни лицензиялаш, лойиҳалаштириш, қуриш ва фойдаланишга топшириш жараёнларининг кечиклиши; АЭС учун ускуналар етказиб беришдаги жиддий қийинчиликлар.</p>	<p><u>Сиёсий:</u> пудратчилар, етказиб берувчилар, молиявий институтларга нисбатан халқаро санкциялар қўлланилиши.</p>
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

АТОМ ЭНЕРГЕТИКАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ БЎЙИЧА ТАДБИРЛАР

1. Миллий ядро инфратузилмасини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари:
атом энергетикасини ривожлантиришнинг қонунчилик ва норматив-ҳуқуқий базасини шакллантириш;
Ўзбекистон Республикасининг глобал ядро хавфсизлиги режимидаги иштирокини таъминлаш;
АЭСдан фойдаланадиган ташкилот фаолиятини таъминлаш;
атом энергетикасининг тартибга солувчи асосини яратиш;
ядро-энергетика дастурининг шаффофлигини ва жамоатчилик учун очиқлигини таъминлаш;
малакали кадрлар билан таъминлаш.
2. АЭС қурилишининг асосий босқичлари:
майдонни танлаш ва АЭСни жойлаштиришни лицензиялаш;
АЭСни ва унинг ташқи инфратузилма объектларини лойиҳалаштириш;
АЭСни ва унинг ташқи инфратузилма объектларини қуриш ва фойдаланишга топшириш.
3. Атроф-муҳитни муҳофаза қилишни ва радиациявий ҳимояни таъминлаш:
атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасидаги тадбирлар;
радиациявий ҳимоя соҳасидаги тадбирлар.

4. Xavfsiz va iqtisodiy samarali yadro ёкилғиси циклини таъминлаш:

- уран рудасини казиб олиш ва қайта ишлаш;
- ядро ёкилғиси ишлаб чиқариш учун уран казиб олишнинг миллий салоҳиятидан фойдаланиш;
- янги ядро ёкилғисини харид қилиш;
- ишлатилган ядро ёкилғиси билан боғлиқ ишларни амалга ошириш;
- ишлатиб бўлинган ядро ёкилғисини қайта ишлаш учун олиб чиқиш ёки уни узоқ муддат сақлашни ташкил этиш;
- ишлатиб бўлинган ядро ёкилғисини қайта ишлаш чиқиндиларини узоқ муддат сақлаш;
- ядро-ёкилғи циклининг чиқиндиларини узил-кесил кўмиб ташлаш.

5. Атом энергетикасини узоқ муддат ривожлантиришни таъминлаш:

- атом фанини ва ядро технологияларини ривожлантириш;
- АЭСни ишлатишни қўллаб-қувватлашнинг миллий секторини ривожлантириш;
- истикболдаги АЭСларнинг референт технологияларини танлаш учун ядро технологияларининг жаҳон ривожланиши тенденцияларини ўрганиш;
- иктисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳа учун ноэнергетик ядро технологияларини ривожлантириш.

МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ ПРОГНОЗ ҚИЛИНАЁТГАН МАНБАЛАРИ

- | | |
|-------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|
| 1. Россия Федерациясининг давлат кредити. | 4. Инвестициялар, шу жумладан, хорижий инвестициялар. |
| 2. Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари. | 5. Чет эл ташкилотларининг грантлари. |
| 3. Атом энергетикасини ривожлантириш жамғармаси маблағлари. | 6. Қонун ҳужжатларида таққиланмаган бошқа маблағлар. |

ТАДБИРЛАРНИ АМАЛГА ОШИРИШ МОНИТОРИНГИ ВА НАЗОРАТИ

1-ДАРАЖА. «Ўзатом» агентлигининг Вазирлар Маҳкамаси олдида ҳар ҳафтада тезкор ҳисобот бериши.

2-ДАРАЖА. Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлигининг Концепция амалга оширилиши тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири олдида ҳар ойда ҳисобот бериши.

3-ДАРАЖА. Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлигининг атом энергетикасини тинчлик мақсадларида ривожлантиришнинг стратегик ва долзарб йўналишлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Президентини олдида ҳар чоракда ҳисобот бериши.


2030 ЙИЛДА ЭРИШИЛАДИГАН МАҚСАДЛАР

1. Ҳар бири 1,2 ГВт қувватга эга иккита энергоблокни фойдаланишга топшириш.
2. Республика энергетика тизимига ҳар йили 18,9 млрд. кВт. соат электр энергияси етказиб бериш.
3. Бевосита атом энергетикаси билан боғлиқ бўлган 2700 та янги иш ўринлари, шу жумладан, АЭСда 1900 та иш ўринлари ташкил этиш.

**О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-fevraldagi PQ-4165-son qaroriga
2-ILOVA**

**2019 — 2029-yillarda O‘zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish
konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha**

“YO‘L XARITASI”

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddatlari	Mas‘ul ijrochilar
I. Milliy yadro infratuzilmasini rivojlantirish				
1.	<p>O‘zbekiston Respublikasining yadro xavfsizligi sohasidagi quyidagi xalqaro konvensiyalarga qo‘shilishi yoki ularning qoidalarini O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga implementatsiya qilish:</p> <p>Yadroviy zarar uchun fuqarolik javobgarligi to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi;</p> <p>Yadro avariyasi to‘g‘risida tezkor xabar berish to‘g‘risidagi konvensiyasi;</p> <p>Yadro xavfsizligi to‘g‘risidagi konvensiya;</p>	<p>Tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va belgilangan tartibda iritish</p>	<p>2019-yil noyabr</p> <p>2019-yil noyabr</p> <p>2020-yil mart</p> <p>2020-yil iyul</p>	<p>Energetika vazirligi (Sultanov),</p> <p>Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi (Gulyamov),</p> <p>Tashqi ishlar vazirligi (Kamilov),</p> <p>Adliya vazirligi (Davletov),</p> <p>FVV (Xudaybergenov),</p> <p>Sog‘liqni saqlash vazirligi (Shadmanov)</p>

	Yadro avariylari yoki radiatsiya avariya holatlarida yordam ko'rsatish to'g'risidagi konvensiya.			
2.	Atom energiyasidan xalqaro shartnomalarga muvofiq tinchlik maqsadida foydalanish sohasidagi normalar va qoidalarni qabul qilish.	Normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish	2020-yil mart	Energetika vazirligi (Sultanov), Adliya vazirligi (Davletov), Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov), FVV (Xudaybergenov), Sog'liqni saqlash vazirligi (Shadmanov), "O'zstandart" agentligi (Sattarov), Davlat geologiya qo'mitasi (Islamov), Davlat ekologiya qo'mitasi (Kuchkarov)
3.	AESni loyihalashtiri❖, qurish va undan foydalanish uchun zarur bo'lgan standartlar, idoraviy normalar, reglamentlar, yo'riqnomalar, nizomlarni qabul qilish (implementatsiya qilish, moslashtirish, ishlab chiqish).	Vakolatli davlat organlari tomonidan normativ hujjatlarni qabul qilish	loyihani amalga oshirish davrida	Energetika vazirligi (Sultanov), "O'zstandart" agentligi (Sattarov), FVV (Xudaybergenov), Sog'liqni saqlash vazirligi (Shadmanov), Adliya vazirligi (Davletov), Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov), Davlat geologiya qo'mitasi (Islamov), Davlat ekologiya qo'mitasi (Kuchkarov)
4.	AESdan foydalanishda O'zbekiston Respublikasining yadro-energetika dasturi manfaatlariga daxl qilish mumkin bo'lgan qo'shni davlatlar bilan muloqotni yo'lga qo'yish.	Muzokaralar o'tkazish	2019 — 2021-yillar	Tashqi ishlar vazirligi (Kamilov), Adliya vazirligi (Davletov), Energetika vazirligi (Sultanov), Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev)
5.	Manfaatdor davlatlar, nufuzli xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali yadro obyektlarini ekspluatatsiya qilish xavfsizligi manfaatleri yo'lida maslahatlashuvlar o'tkazilishini ta'minlash.	Yadro obyektlari xavfsizligini kuchaytirish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash va	2019 — 2030-yillar	Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov), Energetika vazirligi (Mirzamaxmudov), Tashqi ishlar vazirligi (Kamilov), manfaatdor vazirlik va idoralar

		amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish		
6.	AESni ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotni tashkil qilish va rivojlantirish, shu jumladan uning tashkiliy tuzilishi jihatidan tayyorligi, malakali kadrlar bilan to'ldirilishi, zarur normativlar va tartib-taomillarning mavjudligi, uzoq muddat moliyaviy barqarorligini ta'minlash.	1. Normativ-huquqiy hujjatni kiritish 2. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot faoliyatini tashkil etish 3. AESni ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotni rivojlantirish	2019-yil fevral 2019-yil noyabr 2021 — 2028-yillar	Energetika vazirligi (Mirzamaxmudov), Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov), Adliya vazirligi (Istamov), manfaatdor vazirlik va idoralar
7.	AESni ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotning yadro xavfsizligi, maydonlar va pudratchilarni tanlash, loyiha yechimlari, qurilish sifati, keyinchalik foydalanish, moliyaviy ta'minlash, AESni qurish hamda undan foydalanishning boshqa muhim jihatlari, shu jumladan zarar uchun mas'uliyatini belgilash.	Normativ-huquqiy hujjatni kiritish	2019-yil iyul	Energetika vazirligi (Mirzamaxmudov), Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov), Adliya vazirligi (Istamov), manfaatdor vazirlik va idoralar
8.	Xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga solish milliy organini uzoq muddatli rivojlantirish va unga atom energetikasi xavfsizligini tartibga solish sohasida maxsus vakolatlar, shu jumladan xavfsizlikni tartibga soluvchi barcha davlat organlarning atom energetikasi xavfsizligi masalalarini muvofiqlashtirish funksiyalarini berish.	Normativ-huquqiy hujjatni kiritish	2019-yil iyun	Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov), Adliya vazirligi (Istamov), manfaatdor vazirlik va idoralar
9.	Xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga solish organlari o'z vazifalarini zarur tarzda bajarishi uchun yetarlicha moliyaviy resurslardan uzoq muddat foydalanilishini ta'minlash.	Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasini saqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan zarur moliyaviy mablag'lar ajratilishini ta'minlash	har yili noyabrda	Moliya vazirligi (Xaydarov), Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov)
10.	Atom energiyasidan foydalanish va xavfsizlik ekspertizasi sohasidagi faoliyatni litsenziyalash jarayonini takomillashtirish.	Normativ-huquqiy hujjatni kiritish	2019-yil iyul	Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov), Adliya vazirligi (Istamov), manfaatdor vazirlik va idoralar

11.	Xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga soluvchi organlar uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tashkil etish va rivojlantirish.	Kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha kompleks tadbirlarni ishlab chiqish va tasdiqlash	2019-yil avgust	Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov), manfaatdor vazirlik va idoralar
12.	Xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga soluvchi organlarni, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda ekspert jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha milliy sektorni rivojlantirish.	Ekspert jihatdan qo'llab-quvvatlash milliy sektorini rivojlantirish bo'yicha takliflar kiritish	2019-yil dekabr	Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Bekenov), Energetika vazirligi (Mirzamaxmudov), manfaatdor vazirlik va idoralar
13.	Toshkent shahrida va dastlabki AES quriladigan maydon joylashgan hududda Rossiya Federatsiyasi yordamida atom sohasidagi axborot markazlarini ochish.	1. Toshkent shahrida axborot markazini tashkil etish 2. AES quriladigan maydon hududida axborot markazini tashkil etish	2019-yil avgust 2025-yil dekabr	Energetika vazirligi (Mirzamaxmudov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov), manfaatdor vazirlik va idoralar
14.	O'quv seminarlari, xorijdagi atom energetikasi obyektlariga matbuot-turlarini tashkil etish orqali ommaviy axborot vositalari vakillari, shu jumladan jurnalistlar va jamoatchilik fikrini o'rganuvchilarning bilimini oshirish.	O'quv seminarlar, xorijdagi atom energetikasi obyektlariga matbuot-turlarini tashkil etish	rejaga muvofiq	Energetika vazirligi (Mirzamaxmudov), manfaatdor vazirlik va idoralar
15.	O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini ommalashtirish va mamlakat aholisini zamonaviy yadro-energetika texnologiyalari, ularning xavfsizligi va ekologik tozaligi to'g'risida xabardor qilish sohasida tizimli ishlarni tashkil etish.	Teleko'rsatuvlar, matbuotda materiallar e'lon qilishni tashkil etish, ilmiy-ommabop filmlar yaratish va ularni namoyish qilish	rejaga muvofiq	Energetika vazirligi (Mirzamaxmudov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (Allamjonov), MTRK (Xadjayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklari
16.	Yadro va radiatsiyaviy xavfsizlik bilan bog'liq sohalarda talab etiladigan bilimlar va tajriba hamda zarur	Normativ-huquqiy hujjatni kiritish	2019-yil noyabr	Energetika vazirligi (Mirzamaxmudov), Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov)

	xodimlar soni majmuini aniqlash.			
17.	Yadro-energetika dasturida ishtirok etadigan barcha tashkilotlar ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun yetarli bo'lgan mutaxassislarni jalb qilish, o'qitish va saqlash strategiyasini ishlab chiqish hamda tasdiqlash.	Normativ-huquqiy hujjatni kiritish	2019-yil avgust	Energetika vazirligi (Mirzamaxmudov), Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov)
18.	AES va yadro infratuzilmasi uchun xodimlarni tayyorlash dasturlarini, shu jumladan mutaxassislarni xorijiy davlatlarda stajirovkadan o'tkazish dasturlarini ishlab chiqish.	1. Mutaxassislarni qabul qilishning maqsadli jadvalini tasdiqlash. 2. Jadval asosida xodimlarni tayyorlash dasturlarini va ularni stajirovkadan o'tkazish rejalarini ishlab chiqish va qabul qilish.	2019-yil sentyabr har yili 20-yanvarga qadar	Energetika vazirligi (Mirzamaxmudov)
II. Birinchi AESni qurishning asosiy bosqichlari				
19.	AESni joylashtirish uchun maydonni tanlash va litsenziyalash (2019-2020-yillar).	1. Normativ-huquqiy hujjatni kiritish 2. Atrof-muhitga ta'sirni baholash, maydonni tanlash sifatini ta'minlash dasturlari va xavfsizlikni asoslash hisobotini belgilangan tartibda taqdim etish asosida AESni joylashtirishga xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga soluvchi organning litsenziyasini olish	2019-yil oktyabr 2020-yil noyabr	Energetika vazirligi (Mirzamaxmudov), Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov), Davlat ekologiya qo'mitasi (Kuchkarov), Qurilish vazirligi (To'xtayev)
20.	AES va uning tashqi infratuzilma obyektlarini loyihalashtirish (2020 — 2022-yillar).	Loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqish	2021-yil fevral	Energetika vazirligi (Mirzamaxmudov), Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov), Qurilish vazirligi (To'xtayev), manfaatdor vazirlik va idoralar
21.	AESni qurish va ishga tushirish (2022 — 2030-yillar).	1. AES qurilishiga Rossiya	2019-yil dekabr	Energetika vazirligi (Mirzamaxmudov),

		<p>Federatsiyasining kreditini jalb etish to'g'risida Hukumatlararo bitimni tayyorlash.</p> <p>2. AES qurilishiga YERS shartnomasi doirasida Buyurtmachining majburiyatlarini moliyalashtirishning uzoq muddatli (10 yilga) rejasini tasdiqlash.</p> <p>3. AES qurilishiga xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga soluvchi organining litsenziyasini olish.</p> <p>4. AES qurilishi</p> <p>5. Davlat qabul komissiyasi dalolatnomasini tasdiqlash</p>	<p>2019-yil noyabr</p> <p>2021-yil dekabr</p> <p>2022-yildan boshlab energiya bloklari loyiha quvvatiga chiqqandan keyin</p>	<p>Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov), Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (Gulyamov), Moliya vazirligi (Xaydarov), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Bekenov), Tashqi ishlar vazirligi (Asadov), Qurilish vazirligi (To'xtayev), manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
III. Atrof tabiiy muhit muhofazasini va radiatsiya himoyasini ta'minlash				
22.	<p>Milliy yadro-energetika dasturining rivojlantirilishi munosabati bilan atrof-muhit muhofazasi va radiatsiya himoyasi sohasidagi tadbirlarni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.</p>	<p>Milliy yadro-energetika dasturini amalga oshirish davomida atrof-muhit muhofazasi va radiatsiya himoyasi sohasida davlat nazoratini amalga oshirish</p>	<p>belgilangan tartibda</p>	<p>Davlat ekologiya qo'mitasi (Kuchkarov), Sog'liqni saqlash vazirligi (Shadmanov), FVV (Xudaybergenov), Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov)</p>
IV. Xavfsiz va iqtisodiy samarali yadro issiqlik siklini tashkil etish				
23.	<p>Ishlatib bo'lingan yadro yoqilg'isini qayta ishlash uchun chiqarish yoki ishlatib bo'lingan yadro yoqilg'isini qimmatbaho energetik material sifatida uzoq vaqt saqlashni tashkil qilish.</p>	<p>Radioaktiv chiqindilar, ishlatib bo'lingan yoqilg'i bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi va AESni ekspluatatsiyadan chiqarish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatni tayyorlash va kiritish</p>	<p>2019-yil noyabr</p>	<p>Energetika vazirligi (Mirzamaxmudov), Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov), Tashqi ishlar vazirligi (Asadov), Adliya vazirligi (Istamov), FVV (Xudaybergenov), Sog'liqni saqlash vazirligi (Shadmanov)</p>
24.	<p>Ishlatib bo'lingan yadro yoqilg'isi bilan ishlash.</p>	<p>Ishlatib bo'lingan yadro yoqilg'isi bilan ishlashni</p>	<p>2020 — 2028-yillar</p>	<p>Energetika vazirligi (Mirzamaxmudov), Davlat ekologiya</p>

		tartibga soluvchi normalar va qoidalarni, shuningdek xavfsizlik bo'yicha qo'llanmalarni ishlab chiqish va qabul qilish		qo'mitasi (Kuchkarov), Sog'liqni saqlash vazirligi (Shadmanov), Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov), FVV (Xudaybergenov), IIV (Bobojonov)
V. Atom energetikasini uzoq muddatli rivojlantirishni ta'minlash				
25.	Atom ilm-fani va yadro texnologiyalarini rivojlantirish.	Atom ilm-fani va yadro texnologiyalarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish	har yili	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Madjidov), Energetika vazirligi (Mirzamaxmudov)
26.	Iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlari uchun noenergetik yadro texnologiyalarini, shu jumladan materialshunoslikni (yadro va termoyadro reaktorlar, mikroelektronika, aviatsiya va kosmik texnika uchun yangi materiallar olish), yadro tibbiyotini (tashxis qo'yish va davolash uchun radiofarm preparatlar ishlab chiqarish, neytron-tutuvchi va proton terapiya, pozitron-emission tomografiyani rivojlantirish), yadro tahlili va radiokimyo hamda Respublika uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin boshqa yo'nalishlarni rivojlantirish.	Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha uchun noenergetik yadro texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarini ishlab chiqish	2019-yil noyabr	Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Sog'liqni saqlash vazirligi (Shadmanov), Qishloq xo'jaligi vazirligi (Xodjayev), Energetika vazirligi (Mirzamaxmudov), Iqtisodiyot va sanoat vazirligi (Gulyamov), Moliya vazirligi (Xaydarov)
VI. Chora-tadbirlarning amalga oshirilishini monitoring va nazorat qilish				
27.	O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi va "O'zatom" agentligining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Bosh vazir va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida hisobot berishini ta'minlash.	1. Konsepsiya amalga oshirilishi to'g'risida "O'zatom" agentligi tomonidan Vazirlar Mahkamasiga tezkor axborot kiritish. 2. Konsepsiyaning amalga oshirilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh	har haftada keyingi oyning 5 sanasigacha har chorakda, keyingi oyning 10 sanasigacha	Energetika vazirligi (Sultanov), "O'zatom" agentligi (Mirzamaxmudov), Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi (Gulyamov), manfaatdor vazirlik va idoralar,

		<p>vaziriga hisobot berish.</p> <p>3. Yadro-energetika dasturini rivojlantirishning strategik va dolzarb yoʻnalishlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobot berish.</p>	
--	--	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--

(Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 08.02.2019-y., 07/19/4165/2592-son)